


TOSHKENT SHAHRIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

2022 - yil 1 – dekabr holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)




Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning hududiy markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.


Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2022 - yil 1 - dekabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarsiz) shakllantirildi.



Mamlakatimizda qulay ishbiarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022 - yil 1 - dekabr holatiga ko'ra, ming birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni

(tashkiliy-huquqiy shakllar tasnifi bo'yicha
2022 - yil 1 - dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

4

89 938



Mas'uliyati cheklangan
jamiyatlar

3 783



Oilaviy korxonalar

457



Unitar korxonalar

12 081



Xususiy korxonalar

263



Aksiyadorlik jamiyatlari


365



Boshqa korxonalar

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022 - yil 1 - dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



■ 2021- y. ■ 2022- y.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, 2022 - yil yanvar - noyabr oylarida, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022 yil yanvar - noyabr oylarida, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)




Sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2022 - yil 1 - dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **4,1** foizga kamaydi





■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar


Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar



O'tgan yilga nisbatan **4,4** foizga pasaydi




Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022 – yil 1 – dekabr holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **9,5** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari




9,5 foizga oshdi



Mikrofirmalar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




10,7 foizga oshdi



Oilaviy korxonalar




O'tgan yilga nisbatan o'zgarishsiz qoldi




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **15,3** foizga oshdi









Xususiy korxonalar



3,6 foizga kamaydi









Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1 - dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



Oilaviy korxonalar soni

(2022 – yil 1 - dekabr holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022 - yilning 1 - dekabr holatiga ko'ra 3 983 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 364 taga yoki 10,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 3 783 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 335 taga yoki 9,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022 - yilning yanvar - noyabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 444 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 27 taga yoki 6,5 % ga ko'payganini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining tumanlar kesimidagi soni

(2022 - yil 1 - dekabr holatiga ko'ra, birlikda)






Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2022 - yil 1 - dekabr holatiga ko'ra 9 763 tani tashkil etib, ulardan 9 496 tasi yoki 97,3 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda faoliyat ko'rsatayotganlari 1 716 taga yoki 22,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022 - yilning yanvar - noyabr oylarida 1 859 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022 - yil yanvar - noyabr oylarida, birlikda)



Toshkent shahrida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(2022 - yil 1 – dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	<i>shundan:</i>	
		<i>qo'shma korxonalar</i>	<i>xorijiy korxonalar</i>
Rossiya Federatsiyasi	2 005	804	1 201
Qozog'iston Respublikasi	921	330	591
Ozarbayjon Respublikasi	198	58	140
Qirg'iz Respublikasi	164	54	110
Ukraina Respublikasi	163	75	88
Belarus Respublikasi	132	43	89
Tojikiston Respublikasi	122	44	78
Turkmaniston Respublikasi	65	20	45
Armaniston Respublikasi	34	16	18
Moldova Respublikasi	23	7	16


O'zbekiston MDH doirasida amaldagi o'zaro savdo tartibini yomonlashtirmaydigan tamoyillarga asoslangan, to'laqonli erkin savdo hududini tashkil etish tarafdoridir. Bu MDH hududida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi hududida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni oshib borayotganini inobatga olganda ularning asosiy ulushi (jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarga nisbatan) Rossiya Federatsiyasi 17,9 %, Qozog'iston Respublikasi 7,8 %, Ozarbayjon Respublikasi 1,7 %, Qirg'iz Respublikasi 1,5 % va Tojikiston Respublikalarida 1,6 % ga to'g'ri kelmoqda.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni


(2022 - yil 1 – dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

13



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(1 – dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



O'zbekiston MDH doirasida amaldagi o'zaro savdo tartibini yomonlashtirmaydigan tamoyillarga asoslangan, to'laqonli erkin savdo hududini tashkil etish tarafdoridir. Bu MDH hududida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi hududida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni oshib borayotganini inobatga olganda, ularning asosiy ulushi (jami xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalariga nisbatan) Rossiya Federatsiyasi 21,1 %, Qozog'iston Respublikasi 9,7 %, Ozarbayjon Respublikasi 2,1 %, Qirg'iz Respublikasi 1,7 % va Tojikiston Respublikalari 1,3 % ga to'g'ri kelmoqda.

**Tumanlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2022 - yil 1 – dekabr holatiga ko'ra, birlikda)


	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
Toshkent shahri	9 496	3 315	6 181
tumanlar:			
Uchtepa	331	102	229
Bektemir	202	96	106
Yunusobod	1 141	417	724
Mirzo Ulug'bek	1 295	441	854
Mirobod	1 593	447	1 146
Shayxontohur	684	276	408
Olmazor	484	225	259
Sirg'ali	334	125	209
Yakkasaroy	1 502	478	1 024
Yashnobod	802	319	483
Yangihayot	143	57	86
Chilonzor	985	332	653

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Mirobod – 1 593 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 16,8 %), Yakkasaroy – 1 502 ta (15,8 %), Mirzo Ulug'bek – 1 295 ta (13,6 %) hamda Yunusobod tumanlarida 1 141 tani (12,0 %) tashkil etgan. Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning eng kam qismi Yangihayot 143 tani (1,5 %), Bektemir 202 ta (2,1 %), hamda Uchtepa – 331 ta (3,5 %) tashkil etgan.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni

(2022 - yil 1 - dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

15




2022 – yil 1 – dekabr holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar 121 529 tani tashkil etib, tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning jamiga nisbatan ulushi Chilonzor – (12,6 %), Yunusobod – (12,5 %), Mirzo Ulug'bek – (11,5 %), Olmazor – (9,9 %), Shayxontohur – (9,7 %), Uchtepa – (8,7 %), Yakkasaroy – (8,6 %), Mirobod – (8,3 %), Yashnobod – (8,3 %), Sirg'ali – (5,2 %), Bektemir – (2,4 %) hamda Yangihayot tumanlarida (2,3 %) ni tashkil etgan.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni

(2022 - yil yanvar - noyabr oylarida, birlikda)

2022-yil yanvar-noyabr oyida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni 14 634 ta bo'lib, tumanlar kesimida taqsimlanganda ularni jamiga nisbatan ulushi Chilonzor – (12,2 %), Yunusobod – (12,0 %), Mirzo Ulug'bek – (12,0 %), Shayxontohur – (9,3 %), Yashnobod – (9,2 %), Olmazor – (9,1 %), Yakkasaroy – (8,5 %), Mirobod – (8,3 %), Uchtepa – (7,9 %), Sirg'ali – (5,6%), Yangihayot (3,6 %) hamda Bektemir – (2,3 %) tumanlarida tashkil etgan.





(2022 - yilning yanvar –noyabr oylarida, birlikda)



2022 - yilning yanvar - noyabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining soni 444 ta bo'lib, ularni tumanlar kesimida taqsimlanganda Shayxontohur – (12,8 %), Olmazor – (12,4 %), Yunusobod – (12,6 %), Uchtepa – (12,2 %), Yashnobod – (9,7 %), Chilonzor – (8,3 %), Sirg'ali – (7,4 %), Yangihayot – (7,0 %), Mirobod – (5,0 %), Bektemir (3,8 %), Yakkasaroy – (4,5 %), hamda Mirzo Ulug'bek tumanlarida (4,3 %) ni tashkil etgan.

Tumanlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2022 – yilning yanvar - noyabr oylarida, birlikda)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri - axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Toshkent shahar statistika boshqarmasi

Statistik registrlarni yuritish bo'limi

tel.: 71 203-88-31